

**Sirdaryo viloyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ish haqi ko'rsatkichlarini umumlashtirish natijasida, 2019 yil yanvar-iyun oylarida Sirdaryo viloyatida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 1 779,7 ming so'mni (ish haqiga ustama, mukofot, rag'batlantirish xususiyatiga ega to'lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to'lovlar kiritilgan, shuningdek uning tarkibida jismoniy shaxslar daromad solig'i, ijtimoiy sug'urta va kasaba uyushmasiga to'lovlar ham mavjud) tashkil etdi.


**Tarmoqlar kesimida o'rtacha oylik ish haqi**

(2019 yil yanvar-iyun, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari)

	O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm
<b>Sirdaryo viloyati bo'yicha - jami</b>	<b>1 779,7</b>
<i>shu jumladan:</i>	
Sanoat	1 849,7
Qurilish	2 210,6
Savdo	2 183,6
Tashish va saqlash	1 406,8
Axborot va aloqa	1 770,6
Moliyaviy va sug'urta faoliyati	3 012,4
Ta'lim	1 660,6
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1 572,9
Boshqa faoliyat turlari	1 956,4

O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini viloyat tumanlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, ya'ni o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Shirin shahrida **2 247,3** ming so'mni (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan **126,3 %**), Guliston shahrida **1 952,6** ming so'mni (**109,7 %**) va Yangiyer shahrida **1934,5** ming so'mni (**108,7 %**) tashkil etgan bo'lsa, Mirzaobod tumanida **1 356,9** ming so'mni (**76,2 %**) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.

### Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi (2019 yil yanvar-iyun, viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan, % da)




**Ma'lumot uchun:** O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksiga muvofiq, muayyan davr uchun belgilangan mehnat normasini va mehnat vazifalarini to'liq bajargan xodimning oylik mehnat haqi qonun hujjatlarida Mehnatga haq to'lash yagona tarif setkasining birinchi razryadi (2019 yil yanvar-iyun oylarida **577,2 ming so'mni** tashkil etgan) bo'yicha belgilangan miqdordan oz bo'lishi mumkin emasligi ko'rsatib o'tilgan.

**Sirdaryo viloyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**  
 (qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik  
 sub'ektlaridan tashqari, ming so'm)

	2018 yil Yan- var-iyun	2019 yil Yan- var-iyun	O'sish sur'ati, %
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>1374,5</b>	<b>1779,7</b>	<b>129,5</b>
Guliston sh.	1548,7	1952,6	126,1
Shirin sh.	1634,1	2247,3	137,5
Yangiyer sh.	1450,1	1934,5	133,4
<i>tumanlar:</i>			
Oqoltin	1227,8	1662,4	135,4
Boyovut	1177,9	1694,5	143,9
Guliston	1211,1	1560,8	128,9
Sayhunobod	1324,4	1812,4	136,8
Mirzaobod	1207,6	1356,9	112,4
Sardoba	1251,8	1619,6	129,4
Sirdaryo	1286,4	1674,0	130,1
Xovos	1294,5	1736,1	134,1

## Sirdaryo viloyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

2019 yil yanvar-iyun (dastlabki ma'lumot)




**Ish haqi.** 2019 yilning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ish haqi tahlili quyidagilarni ko'rsatmoqda:

1. Sanoatda o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 1849,7 ming so'mga to'g'ri keldi va 2018 yilning xuddi shu davri bilan taqqoslaganda 109,4 % ga oshdi.



•Qurilishda o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2210,6 ming so'mga to'g'ri keldi va 2018 yilning xuddi shu davri bilan taqqoslaganda 116,1 % ga oshdi.




•Savdo sohasida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2183,6 ming so'mga to'g'ri keldi va 2018 yilning mos davriga nisbatan 108,5 % ga oshdi.

•Tashish va saqlash sohasida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 1406,8 ming so'mga to'g'ri keldi va 2018 yilning xuddi shu davri bilan taqqoslaganda 119,5 % ga oshdi.




## Sirdaryo viloyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

2019 yil yanvar-mart (dastlabki ma'lumot)



•Axborot va aloqa sohasida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 1770,6 ming so'mga to'g'ri keldi va 2018 yilning shu davri bilan taqqoslaganda 97,1 % ga tushdi.



•Moliya va sug'urta faoliyati sohasida o'rtacha nominal hisoblangan ish haqi miqdori 3012,4 ming so'mni tashkil qildi va 2018 yilning mos davri bilan taqqoslaganda 140,7 % ga oshdi.

•Ta'lim sohasida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 1660,6 ming so'mni tashkil qildi va 2018 yilning mos davri bilan taqqoslaganda 131,8 % ga oshdi.



•Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 1572,9 ming so'mga to'g'ri keldi va 2018 yilning xuddi shu davri bilan taqqoslaganda 139,5 % ga oshdi.